



YOSHLAR TA'LIMI VA EKOLOGIK ONGNI RIVOJLANTIRISH- YOSHLAR ORASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Keldiyorova Gulmira Abdulla qizi

Jizzax Jamoat Salomatligi tehnikumi 2-bosqich talabasi

*"Tabiatga yaqinlik, jonajon. o'lkaning benihoya go'zalliklaridan
bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi".*

O'z. Res. 1-Prezidenti I.Karomov

Annotatsiya: Ushbu mavzuda yoshlar ta'limi orqali ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari yoritiladi. Atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarga befarq bo'lmaslik hamda yoshlarning ekologik mas'uliyatini oshirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim tizimida ekologik tarbiya berishning samarali usullari va yoshlarning ekologik faoliyatdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar ta'limi, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslar, ekologik mas'uliyat, barqaror rivojlanish, ekologik muammolar, ekologik bilim.

Аннотация: В данной теме рассматриваются вопросы формирования экологического сознания и экологической культуры среди молодежи через систему образования. Анализируется значение охраны окружающей среды, рационального использования природных ресурсов, повышения экологической ответственности молодежи и их активного отношения к экологическим проблемам. Также освещаются эффективные методы экологического воспитания в образовательной системе и роль молодежи в экологической деятельности.



Ключевые слова: Образование молодежи, экологическое сознание, экологическая культура, экологическое воспитание, охрана окружающей среды, природные ресурсы, экологическая ответственность, устойчивое развитие, экологические проблемы, экологические знания.

Annotation: This topic highlights the issues of developing ecological awareness and ecological culture among young people through education. It analyzes the importance of environmental protection, rational use of natural resources, increasing ecological responsibility among youth, and encouraging active participation in solving environmental problems. The study also discusses effective methods of ecological education and the role of young people in environmental activities.

Keywords: Youth education, ecological awareness, ecological culture, environmental education, environmental protection, natural resources, ecological responsibility, sustainable development, environmental problems, ecological knowledge.

Hammamizga ma'lumki, butun insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi. Biz kim bo'lishimiz, qayerda yashashimiz, millatimiz, yoshimiz yoki kasbimizdan qat'iy nazar aslo tabiatdan alohida hayot kechira olmaymiz. Insoniyat foydalanayotgan tabiiy resurslar: nafas olayotgan havo, iste'mol qilayotgan suv zaxiralari, yerusti va yerosti boyliklari, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari, turli xomashyolar barchasi inson uchun, uning hayot tarzi uchun xizmat qiladi. Insoniyat tabiat boyliklari va resurslaridan foydalanish asnosida ekologiyaga ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shuning uchun tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz kerak. Zero, hech nima abadiy eman. Har bir narsaning ibtidosi bo'lgani kabi intixosi ham bo'ladi. Bugungi kunga insoniyat to'qnash kelayotgan eng katta muammolardan biri biri- hech shubhasiz ekologik muammolardir. Bu mavzu so'nggi vaqtlarda nafaqat olim-u ekspertlar,



balki siyosatchilar tomonidan ham insoniyat kelajagiga halokatli xavf soladigan muammolardan biri sifatida ta'kidlanmoqda.

Yer yuzida shunday murakkab ekologik muammolar paydo bo'lmoqdaki, ular nafaqat ayrim davlatlar, balki butun insoniyatning kelgusi hayotini odamzod tirikligini jiddiy xavf ostida qoldirishi mumkin. Bunday muammolar sirasiga atmosfera ozon qatlamining yemirilishi, chuchuk suv zaxiralarining kamayishi, abadiy muzliklarning eriyotgani, jahon okeanning va kosmik fazoning ifloslanishi, Dunyoning "Qizil kitobi" ga kiritilgan noyob o'simlik va hayvonlarning keskin kamayib borayotgani va boshqa ko'plab dolzarb muammolarni kiritish mumkin.

Darhaqiqat, bu muammolar o'z-o'zidan yuzaga kelgan emas. Bu muammolar tabiat boyliklaridan beayov va betartib foyladalish asnosida vujudga kelgan. Endilikda esa bu muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tashkilotlar, davlatlar birgalikda yangi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, ekologiyani himoya qilish va ekologik madaniyatga amal qilmagan kishilarning hatti-harakatlari uchun turli jarimalar belgilash kabi davlat siyosati darajasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda.

Shu o'rinda O'z. Res-si ham atrof-muhit muhofazasiga oid tartibni qonuniy hujjatlarda, ya'ni Kons-da qat'iy belgilab qo'yganligini alohida ta'kidlashim lozim.

O'z. Res. Kons-ning 55-moddasida (yangi tahrirda) "Tabiat va uning boyliklari bilan asosiy qoidalar belgilangan. Unga ko'ra, yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylik hisoblanadi, ulardan oqilona foydalanish kerak va ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi. " Shuningdek boshqa moddalarda ham atrof-muhitni muhofaza qilish majburiyatlari aks etgan.

Yuzaga kelayotgan bu muommolarni bartaraf etish uchun butun insoniyat hamjihatlikda harakat qilishi, o'sib kelayotgan yosh avlodni ekologik madaniyatini, ekologik ongini oshirish, tabiat bilan to'g'ri munosabatga kirishini ta'minlash vazifasi olg'a surib kelinmoqda. Zero, tabiat barcha insoniyatga tegishli borliq.



Ho'sh biz O'z. Res fuqarolari tabiatni asrab-avaylash uchun, atrof-muhitni, yashil olamni muhofaza qilish, kelajak avlodga bu olamni bor go'zalliklari bilan qoldirish qanday choralar ko'ryapmiz? Buning uchun yoshlar o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirishimiz kerak.

Ekologik madaniyat - ongli ravishda atrofimizni o'rab turuvchi yashil olamni asrab-avaylash, undan oqilona foydalanish, tabiat boyliklarini qadrlash, atrof-muhit tozaligini saqlash va tabiatni go'zalligini bahramand bo'lishdir.

Bu ekologik madaniyatni shakllantirish da oila, mahalla atrofdegilar, ta'lim muassasalari va davlatning o'rni alohida ahamiyatga ega. Agar bola oilasida tabiatga va atrof-muhitga nisbatan adolatli munosabatni ko'rib ulg'aysa unda bu farzand mafkurasida ekologik madaniyat shakllanishi oson kechadi. Agar bola oilasida tabiatga hurmatni ko'rmagan bo'lsa unda bu farzandga mahalla, atrofdegilar, ta'lim muassasalari tomonidan ekologik madaniyatni singdirish choralari ko'rish shart. Har bir o'sib-ulg'ayib kelayotgan farzandlarimizga tabiatning insoniyat hayotidagi o'rni qandayligi, insonlarning tabiat uchun salbiy ta'sirlari qanday muammolarni yuzaga keltirishi va bu muammolar insoniyat hayotiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi mumkinligi, tabiat insonlarga nimalarni tuxfa etishi va insonlar tabiatga qanday munosabatda bo'lishi zarurligi haqida bilimlarni doimiy tarzda berib borishim ahamiyatga molikdir.

Bir vazifani aslo unutmasligimiz kerakki, har bitta inson o'zi va yaqinlarning salomatligi uchun ekologik madaniyatga rioya qilishi darkor. Negaki, tabiat nafaqat sizga, bizga va albatta kelgusi avlodlarga ham xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. To'xtayev A. *Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish*. — Toshkent: O'qituvchi, 2015.



3. Yo‘ldoshev J., Hasanboyev J. *Pedagogika nazariyasi*. — Toshkent: Fan, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2013.
5. Saidov S. *Yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirish masalalari*. — Toshkent: Tafakkur, 2020.